

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7832916>

Xosilmurodov Islom Xamitolim o‘g’li

O‘z MU Jizzax filiali o‘qituvchisi

Kalandarov Mexroj Shonazar o‘g’li

O‘z MU Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abu Nars Farobiyning axloqiy qarashlari va uning ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Farobiyning axloq falsafasi to‘g’risidagi qarashlari jamiyat hayotining barcha sohalariga tadbiq etilgan va yosh avlod ma’naviyatining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *Axloq, xulq, odob, qadriyat, aksiologiya, evdomonizm, bashorat, axloq tamoili, baxt-saodat,*

Abstract: *This article discusses the moral views of Abu Nars Farabi and his importance in our social and political life. Farabi's views on moral philosophy are applied to all spheres of society and are an important factor in the development of the spirituality of the young generation.*

Key words: *Morality, behavior, manners, value, axiology, eudaimonism, prediction, principle of morality, happiness*

Аннотация: В данной статье рассматриваются нравственные взгляды Абу Нарса Фараби и его значение в нашей общественной и политической жизни. Взгляды Фараби на нравственную философию применимы ко всем сферам жизни общества и являются важным фактором развития духовности подрастающего поколения.

Ключевые слова: *Мораль, поведение, нравы, ценность, аксиология, эвдемонизм, предсказание, принцип нравственности, счастье*

Hayot haqiqati shundan dalolat beradiki, dunyodagi barcha bilim va tajribalar, so‘z, tushuncha, tasavvur hamda xulosalar bevosita yo bilvosita inson faoliyati bilan bog‘liq holda vujudga keladi, rivojlanadi, boyib takomillashib boradi, yoxud aksincha eskirib, umrini o‘tab, zavolga yuz tutadi. Ayni paytda jahonda shunday bir buyuk hodisa borki, u toki odamzotning ongli hayoti mavjud ekan, hech qachon zavol bilmaydi. Shuning uchun ham uni o‘ta noyob fenomenal hodisa deb ataymiz. Bu sog‘lom fikrlaydigan, ezgu orzu-umidlar bilan yashaydigan inson va jamiyat tomonidan hamma zamonalarda ham qadrlanib kelgan axloqdir.

SHarqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Muxammed Tarxon Forobiy (873-950 y.y.) o‘z davrining g‘oyalarining ifodalab, ijtimoiy-falsafiy fikrning rivojlanishida muhim rol o‘ynagan 160 dan ortiq asar muallifi Forobiyning 40 asari saqlanib qolgan.

Forobiy «Baxt saodatga erishuv haqida», «Fozil odamlar shahri» va boshqa asarlarida ijtimoiy hayot masalalari bilan birga, fozil shaharda yashovchi xalqning axloqiy normalari, munosabatlari va xulq qoidalarini batafsil bayon etadi. Forobiy inson va jamiyatni ta’riflashda evdemonizm nuqtai nazaridan turib, fikr yuritadi. Aql va axloqning o‘zaro aloqadorligi tamoyiliga amal qiladi.

Faylasuf axloq normalarini, aqillik bilan bog‘laydi. Uningcha, aqilli inson har tomonlama, jumladan, axloqan mukammal bo‘ladi. Inson kamolotga erishuv yo‘lida harakat qilganda aqliy bo‘lishga ham harakat qilmog‘i lozim. SHundagina u ezgu niyatiga, ya’ni baxt-saodatga erishadi. Yaxshi fazilatga ega bo‘lmoq uchun barcha ijobjiy sifatlarni inson o‘zida mujassamlashtirmog‘i lozim. Xususan, inson jismoniy, axloqiy va aqliy jihatdan mukammal bo‘lmog‘i, ya’ni idrokli, ziyrak bilimdon, yaxshi muomalali, pok adolatli, insonparvar, kuli ochiq, o‘z harakati va fikrida qat’iy, jasur, qo‘rqish va ojizlikni bilmaydigan bo‘lishi kerak.

Bularning barchasiga bil im orqali erishiladi. Forobiy insoniy fazilatlarni ikkiga bo‘ladi, ya’ni nazariy fazilatlar va amaliy san’at (kasb-hunar) fazilatlari. Inson bu fazilatlar yordamida baxt-saodatga erishadi.

Forobiyning fikricha, donolik bu baxt haqida bilim beradigan fazilat, muloxazalilik va baxt-saodatga erishish haqida bilim fazilatidir. Forobiy fazilat haqida ham fikr yuritib, u ezgulikka daxldor bo‘lishdan vujudga keladigan mehr-oqibat tufayli hosil bo‘ladi, deb ta’kidlaydi. Ushbu fikrlar o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritib, kelajak sari dadil qadamlar bilan rivojlanib borayotgan davlatimiz uchun katta ahamiyatga ega.

Xar bir kishi o‘zining kelajagini buyuk bir maqsad shaklida bashorat va tasavvur qila olmasa uning bunyodkorlik faoliyati susayadi hamda asta-sekin o‘z qiyofasini yo‘qota boshlaydi. Forobiyning fikricha, insoniy vujuddan maqsad — eng oliy baxt-saodatga erishuvdir, avvalo bu baxt-saodatning nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvni o‘ziga g‘oya va eng oliy maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun bo‘lishi kerak keyin bu baxt-saodatga erishtiradigan ishlarni shaxsan bajarishga kirishmog‘i lozim bo‘ladi. Demak baxtni qo‘lga kiritish uchun inson faol, tashabbuskor bo‘lishi kerak Forobiy baxt-saodatga ilm-ma’rifat orqali erishiladi, chunki u olamning mohiyati, mazmuni haqida to‘liq mukammal bilim, kasb-hunar egallash uchun muhimdir, deb ta’kidlaydi.

Forobiy insonning kamolotga erishuvida ta’lim tarbiya nihoyatda zarurligini ko‘rsatib o‘tadi. U insonning ma’naviy hayotida onglilik va axloqiylikka e’tibor beradi. Forobiy inson axloqi uning faoliyatini belgilashda mezondir, ya’ni insonning ma’naviy boyligi, mazmuni uning axloqiy harakatlarida namoyon bo‘ladi, deb hisoblaydi.

Forobiy «Baxt-saodatga erishuv haqida»gi risolasida inson go‘zallikni samarali idrok etishi uchun unda nozik tabiat va aqliy mukammallik zamini bo‘lishi kerak, hissiy va aqliy qobiliyatga ega bo‘lgan insongina dunyoning barcha sirlarini bila olishi mumkin, deb ta’kidlaydi. Inson aql-idroki tufayli haqiqiy insonga aylanadi, bilim insonga baxt va shodlik keltiradi, inson bilish orqali o‘zida go‘zallik va mukammallikni

kashf etadi, deb uqtiradi. Forobiy odamlarni ilm bilan, san'at bilan shug'ullanishga da'vat etadi va shu tufayli go'zal narsalar tushunarli narsaga aylanadi, deb ko'rsatadi.

Forobiyning fikricha, san'at insonda go'zal es-tetik fazilatlarni tarbiyalashga qodir kuchga egadir. SHu bois mutafakkir inson oldiga alohida talablar qo'yadi. U mazkur risolasida ta'lif-tarbiya masalalariga alohida to'xtalib, yoshlarning axloqiy fazilati nizomlarini hamda ularning san'atni egallashi uchun amaliy malakalarini tarbiyalash — tarbiyachilarining muqaddas vazifasi ekanligini ko'rsatib beradi.

Forobiy insoniy sifatlarning barchasini odamlar va narsalar go'zalligi tarzida baholab, ularni maqsadga muvofiqlik va foydalilik tomonlari bilan uzviy bog'laydi. U «She'r san'ati haqida» degan risolasida badiiy faoliyatni o'ziga xos tarzda voqelikka taqlid qilishga qiyos etib, musavvirlik va she'riyat bir-biridan so'z va bo'yoq vositalarida ifodalishi bilan farqlangan xolda, odamlar tasavvurlariga taqlid orqali ta'sir o'tkazishni maqsad qilib qo'yadi, deydi. Bu ta'sir kuchi tasavvur deyiladi hamda utuyg'u va aql-idrok oraligida turadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xosilmurodov Islom Xamitolim o'g'li, Sultonaliyeva Gulshona Sherzod qizi. "Mantiq ilmini o'rganishning ahamiyati". Zamonaviy ta'lif-tarbiya jarayonini tashkil etishning ustuvor yo'naliishlari, ijtimoiy va pedagogik-psixologik asoslari. 2022 yil. 250-bet.
2. Xosilmurodov Islom Xamitolim o'g'li, O'zbekistonda bag'rikenglik va millatlararo totuvlik g'oyalarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati. Jamiat va innovatsiyalar. 2021 yil 10b.
3. Xosilmurodov Islom Xamitolim o'g'li, Sultonaliyeva Gulshona Sherzod qizi. "Tafakkur uslubining falsafiy-metodologik tahlili". "Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dalzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar" Ilmiy-amaliy konferensiya 2022 yil. -B.549-552.
4. Xosilmurodov I.X. Informatsion globallashuv sharoitida raqamli iqtisodiyotning xususiyatlari va ijtimoiy-falsafiy ahamiyati. "Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari" xalqaro-ilmiy texnik konferensiya. 2022 yil. 61-64b.
5. Islom Xosilmurodov Falsafiy tafakkur uslubining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. 2022 yil noyabr. 138-147b